

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI

Abduqaxorov Bekzod O‘tkir o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

+99893 558 41 48, abdukaxaroff@mail.ru

ORCID: 0000-0001-5111-9042

Raimjonova Madina Asrorovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

ORCID: 0000-0001-8942-5723

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion faoliyatning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishidagi ahamiyati, uning mazmuni amaliyotga tadbqiq etish jarayonlari o‘rganilgan. Shuningdek xorijiy mamlakatlarida innovatsion iqtisodiyotning o‘rni, jahon hamjamiyati iqtisodiyotida innovatsiyalarning ulushi ko‘rib tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: innovatsiyalar, innovatsion iqtisodiyot, investitsiyalar, texnopark, innovatsion hudud, “millionlik shahar”, “Global innovatsion indeks”, texnologiya, “Internet of things”, ilmiy-texnik natija, intellektual salohiyat

Kirish. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsiyalar va to‘g‘ri investitsiya siyosatini yuritish dolzarb mavzularda bo‘lib bormoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining savdo va rivojlanish konferensiyasining 2023-yil bo‘yicha “Texnologiyalar va innovatsiyalar hisoboti” ma‘lumotlariga ko‘ra jahon hamjamiyatida innovatsiya faoliyati shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Mazkur hisobot ma‘lumotlariga ko‘ra 2021-yil holatiga innovatsiyalarning jami qiymati 1,5 trln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2030-yilgacha 9,5 trln. AQSh dollarini tashkil qilishi prognoz qilingan. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, innovatsion faoliyat yuritishda AQSh va Xitoy yetakchilik qo‘ldan boy bermay kelmoqda.¹ Mamlakatimizda ham innovatsion faoliyatga, xususan innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilayotganligi O‘zbekistonni ham jahon iqtisodiyotiga globalshuvi jarayoniga izchil qo‘shilayotganligini anglatadi.

Innovatsiyalar tushunchasiga dastlab, iqtisodchi olim N.D.Kondratievning “Большие циклы конъюнктуры” nomli kitobida fundamental ta‘riflar va innovatsiyaning rivojlanish bosqichlari keltirilgan. N.D.Kondratievning fikricha innovatsiyalarga alohida e‘tibor XVII asr boshlaridan boshlangan va hozirga

¹ Birlashgan millatlar tashkilotining savdo va rivojlanish konferensiyasining 2023-yil bo‘yicha “Texnologiyalar va innovatsiyalar hisoboti”. Manba: https://unctad.org/system/files/official-document/tir2023_en.pdf

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

qadar 5 bosqichni bosib o‘tgan. Hozirgi vaqtda esa 6-bosqich jarayoni davom etmoqda.²

Mamlakatimizda ham iqtisodiyotga innovatsion yonadashuv asosida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur chora-tadbirlarning asosiylaridan biri yurtimizda innovatsion hududlarning tashkil etilishi va innovatsiyalarga chuqurroq e‘tibor qaratish borasida maxsus iqtisodiy zonalarining bir turi bo‘lgan ilmiy tadqiqot markazlari hamda texnoparklar tashkil etilmoqda.³ Bugungi kunda viloyatlar kesimida 13 ta innovatsion hudud tashkil etilgan bo‘lib, ularni “millionlik shahar”larga aylantirish ishlari olib borilmoqda.⁴ Shuningdek, iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish hamda “Global innovatsion indeks”da O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish kabi maqsadlar O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son Farmoni⁵da o‘z aksini topgan. Bundan xulosa qilishimiz mumkin, mamlakatimizda ham iqtisodiyot rivojlanishida muhim ahamiyatga ega innovatsion faoliyatga yuqori e‘tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiyotda innovatsiyalarning ahamiyati borasida ko‘plab iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan, xorijiy olim J.Brayt “Speeches on Questions of Public Policy” nomli kitobida innovatsiya jarayoniga quyidagicha ta‘rif bergan: “Innovatsiya jarayoni ilm va texnika, tadbirkorlik va boshqaruvni o‘zida birlashtiruvchi innovatsiyalarning tijoratlashuviga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir”⁶. Ushbu ta‘rifga ko‘ra innovatsiya jarayoni dastlab g‘oya paydo bo‘lishidan boshlab, to tijoratlashtirish asosida jamiyatga tadbiq etish jarayonigacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi.

Iqtisodchi olim B.A.Makarenkoning ilmiy ishlarida innovatsiyalar tushunchasi mohiyatini keng ko‘lamda o‘rgangan va quyidagi ta‘rifni bergan: “Innovatsiyaning mazmun va mohiyati uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi, ular quyidagilar:

- texnika va texnologiyalarning almashinuvini ta‘minlash maqsadida iqtisodiyotga investitsiyalar yo‘naltirish;
- fan-texnika taraqqiyotining mas‘uli bo‘lgan yangi texnika, texnologiyadan samarali foydalanish;

² Кондратьев, Н. Д. Большие циклы конъюнктуры. Избранные работы - Москва : Издательство Юрайт, 2020. - 490 с.

³ Abdukakhorov B. U. SPECIAL ECONOMIC ZONES AS A FACTOR OF REGIONAL DEVELOPMENT //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 4. – С. 613-616.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi ma‘lumotlari. Manba: <https://innovation.gov.uz/innovativeregions>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

⁶ J.Bright. Speeches on Questions of Public Policy. Literary Licensing, LLC. 2014. 556 p.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

-yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, sintezlash, yangi nazariya va modellarni yaratish va ularni hayotga tatbiq etishdan iboratdir.”

Bozor iqtisodiyotida innovatsiyalarni tizimli taqdim etish uslubiyoti xalqaro standartlarga asoslangan va unga muvofiq innovatsiya deganda bozorga kirib kelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliyotda qo‘llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan yangicha yondashuv ko‘rinishidagi innovatsiyaviy faoliyat natijalari tushuniladi.

Ushbu muammo bo‘yicha ko‘p sonli tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramasdan, bugungi kunda innovatsion faoliyat sohasida yagona, umumiy tarzda qabul qilingan terminologiya mavjud emas. Shuning uchun ham shu sohadagi ilmiy adabiyotlarni qisqacha tahlilini keltirish va innovatsion faoliyat sohasidagi asosiy tushunchalarni aniqlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Innovatsion faoliyat ilmiy, ilmiy-texnik natija va intellektual salohiyatni, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (xizmat) olish maqsadida qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bozor sharoitlarida innovatsion faoliyatning asosiy komponentlari bo‘lib, innovatsion faoliyat sohasini tashkil etuvchi g‘oya, yangiliklar, o‘zlashtirilgan investitsiyalar xizmat qiladi.

Iqtisodiyot real sektoridagi ko‘pchilik korxonalarda innovatsion faoliyatini boshqarish, bevosita innovatsiyaviy jarayon orqali kelajakdagi natijalarga erishishga qaratilgan bo‘ladi.

Innovatsion faoliyat ilmiy, ilmiy-texnik natija va intellektual salohiyatni, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (xizmat) olish maqsadida qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bozor sharoitlarida innovatsion faoliyatning asosiy komponentlari bo‘lib, innovatsion faoliyat sohasini tashkil etuvchi g‘oya, yangiliklar, o‘zlashtirilgan investitsiyalar xizmat qiladi.

Iqtisodiyot real sektoridagi ko‘pchilik korxonalarda innovatsion faoliyatini boshqarish, bevosita innovatsiyaviy jarayon orqali kelajakdagi natijalarga erishishga qaratilgan bo‘ladi.

Innovatsion jarayon – juda ham keng tushuncha bo‘lib, uni turli nuqtai nazardan turlicha talqin qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Birinchidan, bu ilmiy-tadqiqot, innovatsion ishlab chiqarish va marketing faoliyatini belgilangan talablar asosida amalga oshirilishidir. Ikkinchidan, uning yangilik darajasini hayotiy siklining vaqtinchalik bosqichlari sifatida ko‘rish mumkin. Uchinchidan, mahsulot yoki xizmatlarni yangi turlarini ishlab chiqish va tarqatishni moliyalashtirish va investitsiyalash jarayonlaridan iborat bo‘ladi. Bunday holatda u innovatsion loyiha sifatida o‘zini namoyon qiladi.

Innovatsion faoliyatni asosini biz ilmiy bilimni innovatsiyaga aylanish jarayonini tushunamiz, ya’ni hodisalarning shunday ketma-ketligiki unda innovatsion faoliyat g‘oyadan tortib oxirgi pirovard mahsulotga aylanish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Innovatsion jarayon faqatgina innovatsiya joriy etilishi bilan tugamaydi balki yangilikni amaliyotga kirib borishi bilan olinadigan mahsulotlar takomillashtiriladi va natijada uning samarasini oshirishga olib keladi.

Innovatsion faoliyat quyidagi tuzilmalar asosida o‘z aksini topishi mumkin bo‘ladi:

- fundamental tadqiqotlar;
- amaliy tadqiqotlar;
- tajriba;
- konstruktorlik ishlari;
- birlamchi o‘zlashtirish;
- tarqatish;
- yangilikdan foydalanish;
- yangilikni takomillashtirish;
- yangi fundamental natijalar.

Innovatsion faoliyatni tashkil etish, boshqaruv jarayonining barcha elementlarini yagona tizimga birlashtiradi va u innovatsiyani yaratish hamda amalga oshirishda innovatsiyaviy jarayonning o‘zida shakllantiradi.

Xulosa. Umuman olganda, innovatsion iqtisodiyot har bir mamlakatning rivojlanishida muhim ahamiyat ega bo‘lgan tarmoqlardan biriga aylandi. Hozirgi kunda mamlakatlar o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsion faoliyatga tayanishmoqda. Yuqorida ko‘rib o‘tilganidek innovatsion iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiyotning tarmoqlarida olib borilayotgan faoliyatning samaraliligini oshirishga qaratilgan amaliy va ilmiy ishlanmalar yoki tadqiqot natijalari hisoblanadi. Shuningdek, bir narsani alohida ahamiyatga egaki, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda albatta jamiyat manfaatlariga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Birlashgan millatlar tashkilotining savdo va rivojlanish konferensiyasining 2023-yil bo‘yicha “Texnologiyalar va innovatsiyalar hisoboti”. Manba: https://unctad.org/system/files/official-document/tir2023_en.pdf
3. Abdulkahorov B. U. SPECIAL ECONOMIC ZONES AS A FACTOR OF REGIONAL DEVELOPMENT //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 4. – C. 613-616.
4. Абдукахоров Б.У. (2022) Повышение инвестиционной привлекательности экономических регионов узбекистана и улучшение условий для привлечения иностранных инвестиций, Студенческий вестник: электрон. научн. Журн, № 14(206). URL: <https://studvestnik.ru/journal/stud/herald/206>
5. Aliev Y.E. Innovatsion iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019- yil, 236 bet.
6. Bright J. Speeches on Questions of Public Policy. Literary Licensing, LLC. 2014. 556 p.
7. Каримкулов Жасур Имомбоевич, Абдукахоров Бекзод Ўткир ўғли. «THE IMPORTANCE OF TAX BENEFITS USED FOR SMALL INDUSTRIAL ZONES IN

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

INCREASING INVESTMENT ACTIVITY», 7 ноябрь 2022 г.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7297816>.

8. Кондратьев Н.Д. Большие циклы конъюнктуры. Избранные работы - Москва : Издательство Юрайт, 2020. - 490 с.

9. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi ma’lumotlari. Manba: <https://innovation.gov.uz/innovativeregions>

10. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни, ЎРҚ-404-сон, 13.04.2016 йил.

11. «Товар-моддий захиралар» номли 4-сон БҲМС. www.lex.uz

12. «Захиралар» номли 2-сон БҲХС. www.lex.uz

13. «Қарзлар бўйича харажатлар» номли 23-сон БҲХС

14. Sam Sedki, Abby Smith, Aissa Strickland. Differences and Similarities Between IFRS and GAAP on Inventory, Revenue Recognition and Consolidated Financial Statements. Journal of Accounting and Finance vol. 14(2) 2014.

15. Ташназаров С.Н. Товар-моддий захиралар таннархи ва уларни молиявий ҳисоботда акс эттириш масалалари. //»Иқтисодий ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2017 йил

16. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>

17. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITAL ECONOMY AND CHANGES IN BUSINESS ANALYSIS. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 13(12), 47-52. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM4Dec2023-Uzb.pdf>

18. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, 4 (20)-сон, 170-175.

19. Ibragimov Gayratjon Artikovich, Kurbanbaev Jurabek Eruvbayevich, Mukhiddinova Barno Gafurjanovna. (2019). The main differences between IFRS and NSA. International Finance and Accounting, 3(13), 1-12. Retrieved from <https://core.ac.uk/download/pdf/285998049.pdf>

20. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITALIZATION OF THE ECONOMY AND OPERATIONAL SAFETY. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 13 (11), 95-101. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-Nov2023-Uzb.pdf>

21. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISOBI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 215–222. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3034>

22. Самадова Наргиза Расуловна. (2024). КОРХОНА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИНГ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ COMPLEX ANALYSIS OF THE ECONOMIC COMPETENCE OF THE ENTERPRISE . World Scientific Research Journal, 23(2), 174–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3030>

23. Gayratjon Ibragimov. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 223–230. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3035>

24. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. Scientific Journal of “International Finance & Accounting”, (2), 2181-1016.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

25. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR . World Scientific Research Journal, 23(2), 231–238. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3036>

26. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>

27. Самадова Наргизза Расуловна. (2024). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА БАҲОЛАШ. World Scientific Research Journal, 26(3), 95–104. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3252>

28. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 239–246. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3037>

29. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>

30. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>

31. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>

32. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>